

O'QUVCHILARDA TARBIYA FANI DARSLARI ORQALI HUQUQIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Jumanova Hafiza Xoliqulovna

Navoiy davlat universiteti. Pedagogika va psixologiya kafedrası
tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15738198>

Annotatsiya: Ushbu tezisdá umumta'lim maktablarida o'quvchilarning huquqiy kompetentligini rivojlantirishda tarbiya fani darslarining o'rni va didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim mazmuni o'quvchilarda nafaqat bilim, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotida muhim bo'lgan huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishga qaratilgan. Tezisdá huquqiy tarbiya berishda tarbiya fanining mazmuni, metodikasi va pedagogik yondashuvlar orqali bu jarayon qanday samarali amalga oshirilishi mumkinligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: huquqiy kompetentlik, tarbiya fani, huquqiy ong, didaktik imkoniyatlar, maktab ta'limi.

Kirish:

Bugungi kunda jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-huquqiy jarayonlar, yosh avlodni huquqiy jihatdan yetuk va mas'uliyatli shaxs sifatida voyaga yetkazishni taqozo etmoqda. Shu boisdan, umumta'lim maktablarida tarbiya fani orqali o'quvchilarda huquqiy bilim va tushunchalarni shakllantirish, ularda qonunlarga hurmat, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy faollikni rivojlantirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Tarbiya fani – o'quvchining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

Asosiy qism:

Tarbiya fani darslari – o'quvchilarda ijtimoiy fazilatlar, huquqiy ong, axloqiy qadriyatlar va fuqarolik madaniyatini shakllantirishda asosiy vositadir. Mazkur fan orqali quyidagi didaktik imkoniyatlardan foydalanish mumkin:

1. **Huquqiy mavzularni integratsiyalash:** Tarbiya darslarida Konstitutsiya, bolalar huquqlari, fuqaro burchlari kabi mavzularni tarbiyaviy mavzular bilan bog'lab o'rganish o'quvchilarda chuqurroq tushuncha hosil qiladi.
2. **Muammoli vaziyatlar tahlili:** O'quvchilarga real hayotiy vaziyatlardan misollar keltirilib, ularning huquqiy jihatdan yechimi muhokama qilinadi. Bu metod mantiqiy fikrlash, huquqiy tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiradi.
3. **Rol o'yinlari va insenirovkalar:** Sud jarayonlari, fuqarolik masalalari, maktabdagi nizolarni bartaraf etish bo'yicha rolly o'yinlar orqali o'quvchilar faol ishtirok etadi va huquqiy amaliyotni angelaydi.
4. **Loyihaviy faoliyat:** O'quvchilar huquqiy mavzularda plakatlar, prezentatsiyalar va bukletlar tayyorlab, ularni sinfda taqdim etishadi. Bu esa ijodkorlikni ham rivojlantiradi.
5. **Ota-onalar bilan hamkorlik:** O'quvchining huquqiy tarbiyasida oila ham muhim o'rin tutadi. Tarbiya fanining didaktik imkoniyati sifatida oilaviy suhbatlar, ota-onalar yig'ilishlarida huquqiy mavzular muhokamasi tashkil qilinadi.
6. **Xalqaro tajriba:** Jahonning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida, xususan, Finlyandiya, Germaniya, Kanada, Yaponiya kabi davlatlarda maktab ta'limiga huquqiy kompetentlikni singdirish ta'lim siyosatining muhim qismiga aylangan. Bu davlatlarda huquqiy tarbiya mustaqil fan sifatida yoki fuqarolik ta'limi ichida olib boriladi. Masalan, Finlyandiya

o'quvchilarga sud jarayonlarining modeli, fuqarolik jamiyati institutlari, shaxsiy huquqlar va erkinliklar amaliy tarzda o'rgatiladi.

7. **O'zbekiston ta'lim tizimida islohotlar:** So'nggi yillarda mamlakatimizda huquqiy tarbiya va fuqarolik madaniyatini rivojlantirish borasida muhim qadamlar qo'yilmoqda. 2020 yildan boshlab yangilangan «Tarbiya konsepsiyasi» asosida tarbiya fani tarkibida huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyat elementlari o'rgatilib, o'quvchilarning huquqiy kompetentligi rivojlantirilmoqda. Yangi darslik va metodik qo'llanmalar, interfaol uslublar orqali huquqiy mavzularni samarali yetkazish imkoniyati kengaymoqda.

8. **Axborot texnologiyalari imkoniyati:** Raqamli resurslar, onlayn testlar, huquqiy viktorinalar orqali o'quvchilarda huquqiy bilimlarni mustahkamlash samarali bo'lmoqda. Ayniqsa, huquqiy bilimlarni multimedia orqali berish o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi.

Xulosa:

O'quvchilarda huquqiy kompetentligini rivojlantirish ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Tarbiya fani darslarining didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish o'quvchilarning huquqiy bilimlarini mustahkamlash, ularni ijtimoiy-huquqiy muhitda to'g'ri harakat qilishga o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa yurtimizda huquqiy demokratik jamiyat qurilishiga zamin yaratadi.

References:

Используемая литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2023.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Pedagogika va psixologiya asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2022.
4. Raximova N. «Huquqiy madaniyat va tarbiya jarayonida uning o'rni». – Ilmiy maqola. «Pedagogika va psixologiya» jurnali, 2021.
5. Jo'raqulova Z. «Maktabda huquqiy tarbiya masalalari». – Toshkent: Fan, 2020.
6. UNESCO. Education for Global Citizenship: A Guide for Policymakers. – Paris: UNESCO, 2015.
7. Finnish National Agency for Education. National Core Curriculum for Basic Education. – Helsinki, 2016.